

DOG'IYNING AN'ANA VA IZDOSHLIKKA MUNOSABATI

Otanazarova Sayyora Otanazar qizi

Namangan davlat universiteti magistranti.

Email: sayyoramapiraliyeva@gmail.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15348314>

Annotatsiya. Ushbu maqolada namanganlik shoir Mulla Yo'ldoshxo'ja Otaxo'ja o'g'li Dog'iyning lirik merosi haqida ma'lumot berilgan. Shoir she'rlarida mumtoz adabiyot an'analariga sodiqlik yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Buning misoli sifatida Dog'iyning hamd va na'tlari tahlil ostiga olindi.

Kalit so'zlar: adib, shoir, devon, bayoz, qo'lyozma, zullisonayn, hamd, na't, muxammas, g'azal.

ОТНОШЕНИЕ ДОГИ К ТРАДИЦИЯМ И ПОСЛЕДОВАТЕЛЯМ

Аннотация. В данной статье представлены сведения о лирическом наследии наманганского поэта Муллы Ёлдошходжи Отаходжи сына Доги. В стихах поэта проявляется верность традициям классической литературы. В качестве примера были проанализированы похвалы и похвалы Доги.

Ключевые слова: адиб, деван, поэт, баяз, рукопись, зуллисонайн, хамд, нат, михаммас, газель.

DOG'I'S ATTITUDE TOWARDS TRADITION AND FOLLOWERSHIP

Abstract. This article provides information about the lyrical heritage of Namangan poet Mulla Yoldoshhoji Otahoji son Dogi. The poet's poems show loyalty to the traditions of classical literature. Dogi's praises and blessings were analyzed as an example.

Key words: adib, devan, poet, bayaz, manuscript, zullisonayn, hamd, na't, mikhammas, ghazal.

KIRISH

Farg'ona vodiysining go'zal shahridan bo'lmish Namangan o'z bag'rida ko'plan shoir va mutafakkirlarni yetishtirib bergan. Ushbu mo'tabar zaminda Mahdumi A'zam Kosoniy, Mulla bozor Oxund, Boborahim Mashrab kabi shoir-u fozillar tug'ilib, voyaga yetganlar.

Ayniqsa, XX asr Namangan adabiy muhitiga nazar tashlasak, bu yerda o'nlab yetuk adiblar yashab ijod etganining guvohi bo'lamiz. Nodim Namangoniy, Mulla Yo'ldosh Xilvatiy, Koshoniy, Mulla Is'hoq eshon Ibrat, Dadaxon qori Suhayliy, Mulla Inoyatxon mahdum Langariy, Nabixon Chustiy, Mulla Otaxon Nisoriy, Abduvohid Sho'xiy singari o'tkir qalam sohiblari shu davrda barakali ijod qilganlar.

Dog'iy taxallusi bilan qalam tebratgan Mulla Yo'ldoshxo'ja Otaxo'ja o'g'li Namangan shoirlarining taniqli vakillaridan biridir.

Arab va fors tillarini mukammal egallagan shoir tafsir, fiqh, balog'at, mantiq, aruz kabi ilmlarning ham yaxshigina bilimdoni edi. Dog'iy aruzning turli shakllarida g'azallar yozgan. Jomiy, Fuzuliy, Mashrab, Nodirabegim, Muqimiy, Zebo, Rojiiy, Oshiqi O'shiy, Partaviy, Unvon kabi shoirlarning g'azallariga go'zal muxammaslar bog'lagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Dog'iy lirik merosi adabiyotshunoslar tomonidan endi o'rganilmoqda. 2006-yilda nashr etilgan "Dilim izhor aylayin derman" she'riy kitobida shoirning hamd, na't hamda munojotlari, shuningdek, g'azal, mustahzod, murabba', muxammas, masnaviy, ruboiy, tuyuq, muvashshah, marsiya, ta'rix she'rlari, fors tilidagi g'azal, muxammaslari ham joy olgan. Shu bilan birga, kitob oxirida Partavning shoirga atab yozgan forscha qasida va g'azali, Anvar qori Tursunovning shoir Dog'iy haqidagi maqolasi o'rin olgan. Otasi she'rlarini eski o'zbek yozuvidan kirill yozuviga o'g'irgan shoirning o'g'li Hoshimxo'ja ushbu nashrga so'zboshi va so'ngso'z yozgan. So'zboshida shoir biografyasi batafsil bayon etilgan. Uning ijodiy merosi hozirgi kunda o'g'li Hoshimxo'ja qo'lida saqlanmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mulla Yo'ldoshxo'ja Otaxo'ja o'g'li Dog'iy adabiy manbaalari o'rganib chiqildi. Uning lirik merosi tahlil qilindi va bugungi kundagi ahamiyati yoritildi. Shoirning mumtoz adabiyot an'analari aks etib turgan hamd, na't, g'azallari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davr adabiy hayitining rang-barang janrlarga boyligi Namangan adabiy harakatchili namoyondalari ijodida ham kuzatiladi. Dog'iy ijodida ham mumtoz adabiyot an'analari hamda yangi davr adabiyotiga xos tamoyillar asosida yaratilgan ijod namunalari o'ziga xos badiiy qimmatga ega. XX asr boshlarida qalam tebratgan ushbu shoir qaysi janrda ijod qilmasin, albatta, mumtoz adabiyot an'alariga suyanagan. Muhabbat, odamiylik, ezgulik, xalqchilik kabi barhayot mavzularda ijod qilgan. Uning ijodidagi an'anaviylik "vertikal" hamda "gorizontal"[1] aspektda amalga oshgani ma'lum. "Vertikal" aspektda yuz began an'anaviylik mumtoz adabiyot vakillari Hofiz Sheroziy, Navoiy, Jomiy, Fuzuliy, Bedil, Mashrab kabi shoirlar ijodiga bo'lgan ta'sirda namoyon bo'ladi.

Ularning balog'at, fasohat, aruz va qofiyadagi ijod sirlaridan ilhomlanib, g'azallariga nazira bog'ladi, taxmislar bitdi. Uning ijodidagi an'anaviylik faqat vazn, qofiya va radif qo'llashda emas, balki poetik g'oyani ifodalashdagi an'anaviy timsollar vositasi ham ko'zga tashlanadi. Shuningdek, zamondosh shoirlarning o'zaro ijodiy hamkorligi, ular o'rtasidagi an'ana va o'ziga xoslik "gorizontal" munosabatda amalga oshganini anglatadi.[2]

Mumtoz adabiyot vakillari ijodidan bahra olish, ularga hamohang ruhda asar yozish yozuvchining san'atkorlik mahoratini oshiradi. Zero, "Navoiy ijodini o'rganish davomida, salafilar ijodi bilan mushtarak ko'ringan jihatlarini yoritishga harakat kitobxonlarning Sharq adabiyoti haqidagi bilimlarini kengaytirishga ko'maklashadi". [3] Bunday jarayon Dog'iy ijodida ham ko'zga tashlanadi.

Quyidagi muxammasda Dog'iy ozarbijon shoiri va mutafakkiri Fuzuliy g'azalining vazn va qofiyasi saqlangan holda poetik fikr rivojlantirilgan :

*Jahonda Dog'iy bir dilraboning mubtalosi bo'l,
Ki rasvolik bila har ziy nafas angusht namosi bo'l,
Vale sohibdilining xizmatida xoki posi bo'l,
Fuzuliy ikki olamda muhabbat oshnosi bo'l,
Yiroq qochg'il aningdin loaqal ishqiy majoz o'lmas.[4]*

Muxammas (ar.: beshtadan, beshtalik) – gʻazaldan keyin eng koʻp yaratilgan lirik janr. Muxammasning har bir bandi besh misradan iborat. Birinchi bandning misralari toʻliq qoʻfiyalanadi, keying bandlarning oxirgi misrasi dastlabki bandga qoʻfiyadosh boʻladi (a-a-a-a-a; b-b-b-b-a...)

Muxammas yaratilish usuliga koʻra ikki xil koʻrinishga ega :

1. Maxsus yozilgan mustaqil muxammas. Bu turdagi oʻzbekcha muxammasning hozircha maʼlum dastlabki namunasi Hofiz Xorazmiy devonida uchraydi.

2. Taxmis yoʻli bilan , yaʼni gʻazal baytlaridagi uch misradan qoʻshish yoʻli bilan paydo boʻlgan muxammas.[5]

Dogʻiy ijodida har ikki turdagi muxammaslarni koʻrishimiz mumkin. Maxsus yozilgan mustaqil muxammasga quyidagi muxammasni misol keltirishimiz mumkin:

*Dilo, qilgan jahonda harna kirdoring xato ketmas,
Aning yoʻlida chekkan dard-u zahmat bedavo ketmas,
Gunagdin tavba qilmas toki har moʻmin safo ketmas,
Bu afʻol ila sandin to qiyomatgʻa havo ketmas,
Zihi ayni saodat ulki hasratda ado ketmas.*[6]

Dogʻiy yuqoridagi muxammasi bilan mumtoz adabiyot anʼanalariga suyangan holda Hofiz Xorazmiy yoʻlini davom ettirgan.

Dogʻiy muxammasning ikkinchi turi : taxmis yoʻli bilan , yaʼni gʻazal baytlaridan uch misra qoʻshish yoʻli bilan paydo boʻlgan muxammaslar ham yozadi :

*Qatlim uchun kelur esa Dogʻiy biling ani,
Tutmam darigʻ qudumiga ming jon bila tani,
Yoʻqtur agarchi kulbayi ahzoni ravzani,
Gʻam zulmatida boʻlimgʻa dard-u balo mani,
Basdur Fuzuliy otashi ohim alomati.* [7]

Yuqoridagi muxammas Fuzuliy gʻazaliga tatabbuʻ qilingan. Dogʻiy Fuzuliy ijodiga juda katta qiziqish bilan qaragan. Soʻzimning isboti sifatida shuni keltirishim mumkinki, shoirning avlodlariga qoldirgan moʻjazgina kutubxonasida Fuzuliy qoʻlyozmalari ham saqlangan.

Dogʻiyni vertikal aspektida yozgan muxammasiga quyidagi misralarni ham misol keltirsak boʻladi:

*Rahm etib ahvoligʻa rahmat sharobin tutmasa,
Tashnayi gʻufyon erur bir jurʻa andin yutmasa,
Dogʻiy, gar qilgan duolarni ijobat etmasa,
Xoja Nuriddinni Mashrabga gunohin oʻtmasa,
Osiy-jofiy kuymasin, doʻzaxga tanho man boray.*[8]

XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyondasi boʻlgan Dogʻiy boshchiligidagi boʻlib oʻtgan adabiy kechalar, Qoʻqon adabiy muhiti namoyondalari bilan boʻlib turgan adabiy aloqalar bu davr ijodkorlarining qalami mumtoz adabiyot anʼanalariga xos

tamoyillar bilan charxlanganligini ko'rsatadi. Bu davr ijodkorlari, jumladan, Nodim, Xilvatiy va Dog'iy shoir Muqimiy bilan yaqin munosabatda bo'lishgan. Muqimiy Namanganga tashrif buyurganda Dog'iy har gal uning ishtirokidagi adabiy yig'inlarda qatnashadi. Bu uchrashuvlar natijasida Dog'iy Muqimiyning "Dog'man" murabbasiga nazira bog'laydi.

*Arzidil ayturg'a bir xilvat qilolmay dog'man,
Bir nafas yolg'iz topib hasrat qilolmay dog'man,
Jabr-u bedard-u sitam behad chekib ranj-u alam,
Sen bila suhbat qurib rohat qilolmay dog'man.[9]
Yuqoridagi murabba'ga Dog'iyning yozgan nazirasi quyidagicha :
Aylanib girdi bu gulshandin ketolmay dog'man,
Dasta-dasta yoki gullardin uzolmay dog'man.
Uchradim men domi sayyodiga chandon zo'r urub,
Torta-torta poy bandidin chiqolmay dog'man.[10]*

Shoir gorizontaal aspektida o'z zamondosh shoirlari Suhayliy, Xilvatiy, Ubaydiylarning g'azallariga ham muxammas bog'lagan.

Mumtoz adabiyot namoyondalari ijodiga xos xususiyatlardan yana biri asarlarni hamd va na't bilan boshlanishidir. XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyondalari ijodida mumtoz adabiyot an'analari asosida yaratilgan hamd va na't g'azallari mavjud. Dog'iy ijodida bu hodisaga ko'p duch kelamiz, chunki uning deyarli barcha asarlari yaratganga hamd bilan boshlangan. Dog'iyning ilohiy muhabbat bilan yo'g'rilgan hamd mavzusidagi baytlarini tasavvuf falsafasiga bog'lab o'rganish shoir qalbidagi his-tuyg'ularni aniqroq tushunishimizga yordam beradi. Masalan, Dog'iyning quyidagi hamd g'azali 8 bayt bo'lib, g'azalning dastlabki 7 baytida Yaratganning sifati subutiya sanaladi:

*Avval ba nomi hazrati xudovandi taolo,
Bo'ldi aning qudratidin paydo hama ashyo.
Uldur Ahadu Samadu yana bir vasfi lam yalid,
Bo'lmas barobari aning dar avji kibriyo.
Xalq etti sonsiz sun'idin murg'oni bahoyim,
Undurdi yerning ustida navoyi g'izoho.[11]*

So'nggi baytda esa shoir Allohning sifatlarini sanab oxiriga yetib bo'lmasligiga, ya'ni Uning tengsizligiga ishora etadi :

*Yetmasdur anga hech aql ochmakda na zamon,
Ne had senga demak bari vasfini Dog'iy.[12]*

Shoir yuqoridagi baytda oshiq tilidan Mahbubning betakror sifatlarini sanab, Unga tahsin o'qimoqda. Olam va uning ashyolarida, uning har bir zarrasida Husni Mutlaq jamoli aks etganini his etgan shoir Ollohning qudrati oldida insonning naqadar ojizligini bayon qilmoqda.

XULOSA

Shoirning mumtoz adabiyot an'analariga asoslanib yozilgan hamd va na't g'azallarida so'fiyona ishq, soliklarga xos tarzda o'zini malomat qilish va Yaratgan marhamatidan umidvor bo'lish ruhi singdirilganini ko'ramiz. U o'zining chuqur ma'noga ega hamd va na't g'azallari bilan mumtoz davr ijodkorlari an'alarini munosib davom ettirdi.

REFERENCES

1. Baller E. A., Ismoilov F. Y. Vorislik nima ? – Toshkent: O'zbekiston, 1978. – 21 b.
2. Boltaboyeva O. XX asr boshlarida Namangan adabiy harakatchiligi: namoyandalari, an'ana va yangilanish: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – 146 b.
3. Muhiddinov M. Adabiy an'ana va ijodiy o'ziga xoslik. -Toshkent: O'qituvchi, 1990.-4 b.
4. Догий. Дилим изхор айлайин дерман. – Тошкент. Мовароуннахр, 2006. – 94 б.
5. Ishoqov Y. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent : O'zbekiston, 2014 – 126 b.
6. Karimov G'. Muqimiy. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009. – 96 b.